

# Strategik rejalashtirish modellari

## **Reja:**

- 1. Strategiya turlari*
- 2. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi*
- 3. Strategik dasturning mazmuni.*

«Strategiya» tushunchasi ikki qismdan iborat (grekcha «Strategia») – stratos - qo‘shin, ago- olib bormoq, ya’ni masalan, kelib chiqishi bo‘yicha harbiy atama hisoblanadi.

Agar, «strategiya» tushunchasini, fuqarolik muhitida qo‘llanilsa, strategiya, avvalo uzoq muddatli rejalashtirish va mavjud bo‘lgan ahvolni saqlash, maqsadga muvofiq bo‘lsa yoki maqsadli ko‘rsatmalarga muvofiq aniqlanadigan, u yoki bu sohada tub o‘zgarishlarga erishishga yo‘naltirilgan ish - harakatlanish dasturini ifodalaydi.

«Strategiya» atamasi turli iqtisodiy tizimlarda turlicha tushuniladi. Strategik ko‘rsatmalarning qat’iylik darajasi bir xil tushunilmaydi. Mikmilan, uning yapon variantini shunday ta’riflab yozadi: « bu yerda strategiya, puxtalik bilan o‘ylangan, A va V ga va so‘ngra Strategik ga o‘tishga ijozat beradigan qoidalar yig‘indisi va bajariladigan ish tartibi o‘zaro mantiqan bog‘liqligini mutlaqo bildirmaydi».

Yaponiyada, strategiya deganda, amaliy boshqaruv tizimlari chegarasi tashqarisida ro‘y beradigan voqealarga tayyor turish tushuniladi. Ushbu mazmunda strategiya, mustahkam turgan fikrlardan, u yoki bu chetga chiqishlar mavjudligi, noaniq sharoitda harakatning umumiy mo‘ljallarini ishlab chiqadi.

Innovatsion strategiya, umumiy iqtisodiy strategiyada dvigatel rolini o‘ynaydi. Innovatsion strategiya o‘rni, kompleks strategiya tuzilishini tahlil qilish jarayonida aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Takror ishlab chiqarish jarayonining alohida qismlari uchun, substrategiyada kompleks strategiyani dekomponovkalash mumkin. Dekomponovkalash, gorizontal va vertikal qirqimlarda bajarilgan bo‘lishi mumkin. Gorizontal qirqim:

ishlab chiqarish dasturlarining rivojlanish substrategiyasi;

ishlab chiqarish-texnik bazalarining rivojlanish substrategiyasi;

boshqaruv tizimlarining rivojlanish substrategiyasi.

Vertikal qirqim, iqtisodiy tizimlarning bo‘g‘inlari va elementlari uchun strategiyani ishlab chiqishni ko‘zda tutadi (korxonalar uchun strategiya - bo‘linmalar va tarkibiy birliklarning rivojlanishi; tarmoqlar uchun alohida ishlab chiqarish).

Butun bir integratsiya sifatida ko‘rib chiqilayotgan kompleks strategiya umumiy va ishchan strategiyaga bo‘linadi.

Umumiy strategiya tashkilot maqsadiga erishishga mo‘ljallab olib, tashqi va ichki o‘zgarishlarga ta’sirlanish vositasi bo‘ladi (faoliyat yo‘nalishini tanlash, masalan, manbalardan foydalanish, bozordagi muomala, tutashish, muvaffaqiyat va hokazo).

Umumiy strategiyani amalga oshirish vositalari: narx, kredit, mollarni sotish, reklamalar, mutaxassislar va hokazo kichik strategiyani ifodalovchi ishchan strategiya, alohida kichik strategiyadan iboratdir.

Ishlab chiqarish omillari rivojlanishining har bir substrategiyasi omillarning o‘zaro ta’siri va mahsulot rivojlanish substrategiyasiga tegishli bo‘lgan, ilmiy-texnik innovatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, innovatsion strategiya, ishlab chiqarish umumiy maqsadlarini va umumiy strategiyaning kichik tizimlarini amalga oshirish strategiyasidan iboratdir. Innovatsion strategiya ishchan strategiya bilan chambarchas bog‘langan. Xullas, bir tomondan, innovatsion siyosat, aniq moliya –iqtisodiy vositalar (ishchan kichik strategiya) sohasida tegishli yordamni talab qilsa, boshqa tomondan esa, ularning o‘zi tomonidan berilayotgan imkoniyatlari ma’lum darajada aniqlanadi.

Strategiyaning vertikal qirqimi ular makro-mezo (regional) va mikro darajada ko‘rib chiqilishini ko‘zda tutadi.

Makro strategiya ba’zan markaziy deb atalsa, mikro strategiya esa institutsional, deb ataladi.

## **4.2. Strategik qarorlarni qabul qilish tartibi**

Ijtimoiy va iqtisodiy prognozlashda turli modellardan keng foydalaniladi. «Model» lotincha soʻz boʻlib, namuna, degan maʼnoni anglatadi. Fanda model oʻrganilayotgan obyektning biror turdagi shartli obrazi (shakli), «prognozlash» esa iqtisodiy yoki ijtimoiy jarayonlarning aksini anglatadi.

Model iqtisodiy prognozlashni, oʻrganilayotgan jarayonni ilmiy anglashning muhim vositasi hisoblanadi. Modellashtirish jarayonini obyektini yoki jarayonni boshlangʻich oʻrganish, uning amalga oshadigan xususiyatlari va belgilarini ajratish, nazariy va tajribaviy (eksperimental) tahlili, modellashtirish natijalarini obyekt haqidagi haqiqiy maʼlumotlar bilan solishtirish, modelni korrektilovkalash hamda oydinlashtirish kabilar asosida model qurishni tashkil etadi.

Ijtimoiy va iqtisodiy modellar optimallashtirish mezonlari yoki kutilayotgan eng yaxshi natijaga qarab tasniflanishi mumkin.

Vaqt omili hisobga olinganda modellar statistik (yaʼni, model chegarasi maʼlum bir vaqt boʻlagi deb oʻrnatiladi va xarajatlar mimallashtiriladi) yoki dinamik (bunda model chegarasi bir necha vaqt kesmalari uchun oʻrnatilib, xarajatlar mimallashtiriladi yoki yakuniy natija maksimallashtiriladi) boʻlishi mumkin.

Iqtisodiy modellarni quyidagi turlarga ajratish qabul qilingan: omilli (faktorli), tarkibiy (strukturaviy) va aralash iqtisodiyot rivojlanish koʻrsatkichlarini yigʻish darajasiga qarab makroiqtisodiy, tarmoqlararo, rayonlararo, tarmoqli, regional modellar boʻlishi mumkin. Iqtisodiyotning rivojlanish jihatlariga qarab, modellar asosiy fondlar, mehnat resurslari, moliya tizimi hamda narx shakllanishi kabi turlarga boʻlinishi mumkin.

Omilli modellar u yoki bu iqtisodiy koʻrsatkichli darajasi va dinamikasining unga taʼsir etuvchi koʻrsatkichlar - sabablar darajasi va dinamikasiga bogʻliqligini tavsiflaydi.

O'zgaruvchan iqtisodiy modellar ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) kabi turlarga ajratiladi. Masalan, omil bo'lsa, mehnat resurslarining borligi endogen omildir.

Omili modellar turli o'zgaruvchilarni va ularga mos keladigan parametrlarni o'z tarkibiga oladi. Omilli modellarning eng oddiy ko'rinishi – bu, bir omilli model bo'lib, unda istalgan vaqtinchalik parametr omil hisoblanadi. Mazkur holda biror ko'rsatkich tahlili va prognoz vaqti xronologik qatorga bog'liq ravishda amalga oshiriladi va shu yo'l bilan trendlar (qaysi bir dinamik qator o'zgarishining umumiy tendensiyasini xarakterlovchi bog'liqlik) aniqlanadi.

Chiziqli va nochiziqli (nelineynoye) ko'rinishdagi ko'p omilli modellar prognozlashtirilayotgan ko'rsatkich dinamikasini va darajasiga ta'sir etuvchi bir necha omillarni bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini beradi. Bunda modellarga makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyalarini tavsiflovchi modellar, aholi daromadi va narxga bog'liq ravishda ayrim iste'mol tavarlariga talabni tahlil etish modellari misol bo'la oladi.

Tarkibiy modellar ikita butun yoki agregatni tahlil etuvchi alohida elementlar orasidagi aloqa va boqliqlikni tavsiflaydi. Bunday modellar tarkibiy balans ko'rinishdagi modellar bo'lib, bunda biror qatorida uning elementlari orasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi.

Mahsulot xomashyo nomeklaturasiga qarab modellar bir natijali va ko'p natijali kabi turlarga bo'linadi.

Birinchi guruhga tarmoqda ishlab chiqariladigan yoki shu tarmoqda iste'mol qilinadigan boshqa resurs yoki xomashyo miqdoriga bitta chegara qo'yilgan modellar kiradi.

Ikkinchi guruhga xomashyo yoki boshqa resurs iste'moli uchun butun tarmoq bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot talabiga ikki yoki undan ko'p cheklanishlar qo'yilgan modellar kiradi.

Transport omilining ta'sir etish darajasiga ko'ra, tarmoqli optimal rejalashtirish modellari ikki turga bo'linadi: ishlab chiqarish – transport modeli (transport omili e'tiborga olinmaydi) va ishlab chiqarish –transport modeli (transport omili e'tiborga olinadi).

Tarmoqlararo balans (TAB)- iqtisodiyotdagi asosiy model bo'lib, unda iqtisodiyotdagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi. U sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmining o'zaro bog'langanligini hisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun iqtisodiyot mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi, TAB ikki ko'rinishda shakllantirilayapti: qiymat va natural shakilda. Mamlakat bo'yicha qiymat ko'rinishidagi TAB nomenklaturasini 120 ta tarmoq nomenklaturasini o'z ichiga oladi va u barcha moddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Natural ko'rinishdagi TAB barcha mahsulotlarning 80 %ini tashkil etuvchi asosiy mahsulotlarni qamrab oladi. Ushbu balansda 600 ga yaqin zaruriy mahsulot turlari aks ettiriladi.

Natural - qiymat balansi modeli iqtisodiyotning kompleks tavsifini aks ettiradi. Moddiy qiymat TAB modelining balanslashtirilgan holdagi reja uchun boshlang'ich ma'lumotidir. Bunga MD hajmi, tarkibi ko'rsatkichlari, eksport, import va kapital ta'mirlash hajmi ma'lumotlari kiritiladi.

TAB modeli bo'yicha ikki tipdagi hisob - kitoblar amalga oshiriladi:

Bunda berilgan yakuniy iste'mol darajasi bo'yicha mahsulotlar ishlab chiqarish va taqsimlanishning balanslashtirilgan rejasi hisoblab topiladi.

Aralash hisob – kitoblarni o'z ichiga oladi. Bunda ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa tarmoqlarga yakuniy iste'molga berilgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish va taqsimlash balansi tuziladi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy prognozlarni tuzishda iqtisodiy-matematik modellar keng qo'llaniladi. Bularga bir va ko'p omilli iqtisodiy o'sish modellari, MD ni taqsimlash modellari, tarkibiy tarmoq va asosiy fondlarni qayta tiklash modellari, investitsion oqim xarajati modeli, turmush darajasi va iste'mol tarkibi modellari, kengayib borayotgan eko siyosat modeli, ish haqi va daromadlarni taqsimlash modellari kiradi.

Iqtisodiyot balansini prognozlashlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi - iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozlashtirishni, Verifikatsion-statistik yondashish dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan mosligini va baholanayotgan sharoitlar ma'nosini tekshirishni ko'zda tutadi. Iqtisodiy prognozlashtirish makro iqtisodiy modellari tizimida bu usuldan foydalanish iqtisodiyotning balanslashtirilganligi tarkibiy va omilli jihatlarni o'rganish va ularni optimallik prinsipi asosida sintezlash bilan bog'liq.

Iqtisodiyotning balanslashtirilganlik omili jihati mahsulotni chiqaruvchi obyekt hamda ishlab chiqarish omillari xarajatlari (asosiy fondlar va mehnat resurslari) orasidagi bog'liqlikka asoslanadi. U ishlab chiqarish omillari orasida ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlab turuvchi mutanosiblikni aniqlashga borib taqaladi.

Balanslashtirilganlik (vaqt oralig'i) jihatlari ishlab chiqarish omillari xarajatlarini vaqt bo'yicha taqsimlash va ular o'zaro bog'liqligida erishiladigan taqsimotga asoslanadi. Asosiy vaqt oralig'i xususiyatlari asosiy fondlarni qayta tiklash bilan bog'liq. Vaqt oralig'i balanslanganlikka erishish uslubi xarajatlar va ularning asosiy fondni qayta tiklash jarayonini belgilovchi natijalari hamda xususiyatlarining ko'rsatkichlar o'sishi sur'atiga bog'liqligiga asoslangan. Ushbu usul asosiy fondlarni qayta tiklash jarayoni xususiyatlari hamda narx indeksleri, kelib turuvchi manbalar miqdori va kapital qo'yilmalar hamda asosiy fondlar

chiqimi, ularning tarkibini belgilovchi hamda dinamika ko'rsatkichlarini kechiktirish usuli bilan farqlanuchi butun bir modellar guruhini tuzish imkonini beradi.

Balanslashtirilganlikning tarkibiy jihati ijtimoiy ishlab chiqarishning birinchi va ikkinchi bo'limlari orasidagi proporsiyalarga hamda tarmoqlararo tarkibiy modellar ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish qo'yilmalari hamda mehnat resurslarining tarmoq strukturasi prognozlashning tizmidan keng foydalaniladi.

### **qisqacha xulosalar**

Xulosa sifatida shularni aytish mumkinki, strategiya uzoq muddatli rejalashtirish va mavjud bo'lgan aholini saqlash, maqsadga muvofiq bo'lsa yoki maqsadli ko'rsatmalarga muvofiq aniqlanadigan, u yoki bu sohada tub o'zgarishlarga erishishga yo'nalitirilgan ish harakatlanish dasturini ifodalaydi.

Buning natijasida, iqtisodiyot sohasida va iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida ro'y berish mumkin bo'lgan ijobiylik va salbiyliklarni oldini olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Bunga biz umumiy-iqtisodiy, innovatsion, umumiy va ishchan strategiyalar yordamida erishishimiz mumkin.

Strategik qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy modellar muhim rol o'ynaydi. Bularga: omili, tarkibi, va aralash iqtisodiyotni aytish mumkin. Shuningdek, TAB ham iqtisodiyotdagi asosiy model hisoblanadi va unda iqtisodiyotdagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi.

Iqtisodiyot balansini prognozlashni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi esa iqtisodiy o'sishning asosiy parametirini prognozlashni ko'zda tutadi. shunday ekan, strategik qarorlar qabul qilish, strategik dasturning mazmunini

aniqlash hozirda muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish lozim. Ko'rib chiqilayotgan kompleks strategiya umumiy va ishchan strategiyaga bo'linadi.

Model iqtisodiy prognozlashni o'rganilayotgan jarayonni ilmiy anglashning muhim vositasi hisoblanadi.

## Asosiy adabiyotlar

1. И.А.Каримов. «Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир». Ўзбекистон овози. 2005 й. 29 январ.
2. Каримов И.А. «Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва мафкуравий дунё билан ҳамкорлик йўли» Т. Ўзбекистон 2003.
3. Каримов И.А. «Хавфсизлик ва тинчлик учун курашиш зарур» Т. Ўзбекистон 2002.
4. Каримов И.А. «Озод ва обод ватан эркин ва фаровон ҳаёт» Каримов И.А. «Эришилган марраларимизни мустаҳкамлаб, ислохотлар йўллари излаб бориш асосий вазифа» Халқ сўзи 2004й. 10 феврал.
5. И.А.Каримов Избраннўй нами путь-это путь демократического развития и сотрудничество с прогрессивнўм миром. Т. Узбекистан. 2003.
6. Прокопчук Л.О., Козўрев А.А. Стратегическое планирование, Конспект лекций С.Петербург, 2000.
7. Кравченко Р.С. Кориоративное управление: обеспечение и и захита права акцинеров на информацию – М.: Спарк, 2002.
8. Гурков И.Б. Стратегический менеджмент организации. Учеб.пособ. 2-е изд., испр и дополи, М.: ТЕИС, 2004.
9. Якубов И.О., Абдусатгарова Х.М., Очилов К.Т. Ситдикова Л.А. Стратегик режалаштириш. Ўқув кўлланма. Т.: ЎзР Ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004.